

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON ENGIL SANOATIDA ISHLAB CHIQUARISHNI KLASTER USULIDA TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI

Ibodulloyeva Sayyora Shomuratovna

TAFU, "Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriya" kafedrası katta o'qituvchisi

e-mail: ibodulloyevas@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14899758>

Annotatsiya. Xalqaro maydondagi raqobat kurashida kompaniyani joylashtirish o'rni vausulining to'g'ri tanlanishi muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi. Menejmentning aynan shu tamoyiliga amal qilgan holda, Bostonda dunyo miqyosidagi jamoa sarmoyasiga ega moliyaviy kompaniyalar, Shimoliy va Janubiy Karolinada to'qimachilik kompaniyalari, Germaniyaning janubida yuqori samarali avtomobil kompaniyalari, Italiyaning shimolida xaridorgir poyafzal ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning klasterlari tashkil etilgan. Bunday klasterlar milliy, mintaqaviy va jahon iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatiga aylandi va yuqori raqobatbardoshligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: taraqqiyot strategiyasi, mahalliy xomashyo resurslari, yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot, innovatsion texnologiyalar.

Kirish. Mustaqil taraqqiyot davrida O'zbekistonda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilib, chet el sarmoyalari ishtirokida zamonaviy korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususiyl mulkka asoslangan korxonalar ham yildan-yilga ko'paymoqda. Natijada shahar va qishloqlarda eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan sanoat tarmoqlari barpo etilishi hisobiga ichki bozor talablari to'liq ta'minlanib, aholi ehtiyojlaridan ortgan mahsulotlarning bir qismi jahon bozoriga eksport qilinmoqda. Bu esa O'zbekiston engil sanoati korxonalari oldiga jahon bozorida raqobatbardoshlikni yanada oshirish vazifasini qo'ymoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida sanoatning yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi mamlakatimizdagi sanoat korxonalarida, xususan, engil sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshqarish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Jahon standarti talablariga javob beradigan va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlovchi yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish, yengil sanoat korxonalarining infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarishni joriy qilishning ilmiy asoslarini yaratish talab etilmoqda. Shu jihatdan, xorijiy tajribalar asosida mamlakatimizdagi engil sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni klaster asosida tashkil etish va boshqarish samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bugungi sharoitda sanoat klasteri iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini ta'minlovchi ishlab chiqarishni tashkil etishning integratsiyalashgan shakli, muayyan sharoitda innovatsiyalarni jadallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, mamlakatning strategik ustunliklarini kuchaytirish, dinamik raqobatni saqlab turishga ko'maklashuvchi iqtisodiy tizimlarni sifat jihatdan o'zgartirishning bozor mexanizmi sifatida ko'riladi. Shu bilan birga klasterlashtirishni o'z-o'zidan samara beruvchimekanizm sifatida qabul qilmaslik kerak.

Klaster yondashuvi O'zbekistonda keng tan olinayotganiga qaramay, mahalliy sanoatni klasterlashtirish etarli darajada rivojlanmagan. Engil sanoatda etti mingdan ortiq korxonalar faoliyat yuritishiga qaramay, ular klasterlarga birlashtirilmagan. Maxsus adabiyotlarda klasterlarni tashkil etish uchun ishlab chiqarishlar va sanoat tarmoqlarining rivojlanishini yalpi baholash taklif etilgan. Ishlab chiqarishlar va sanoat tarmoqlarini rivojlangan hamda kamroq rivojlangan turlarga tasniflash o'rganilayotgan ishlab chiqarishlar faoliyatini tavsiflovchi absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar hamda joylar yig'indisi usulini qo'llagan holda hisoblab chiqiladigan yalpi mezon asosida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishlar va

tarmoqlarning rivojlanish darajasini ekspert yo'li bilan aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlar: ishlab chiqarishning rentabelligi, mehnat unumdorligi, asosiy fondlarning fond qaytimi va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalari soni belgilangan. Mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish va sanoat tarmoqlarining rivojlanishini yalpi baholashning quyidagi bosqichlari ajratilgan:

1. Mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarishlar va sanoat tarmoqlarining rivojlanishini yalpi qiyosiy baholash maqsadlari va vazifalariga aniqlik kiritish.
2. Tarmoqlar va ishlab chiqarishlar rivojlanishining samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi baholanadigan parametrlarning bir yo'nalishligini hisobga olgan holda yalpi baholashni o'tkazish uchun ko'rsatkichlar boshlang'ich tizimini tanlash.
3. Tadqiq etilayotgan hududda joylashgan ishlab chiqarishlar va sanoat tarmoqlarining faoliyati haqidagi boshlang'ich axborotni to'plash va ularga ishlov berish.
4. Tarmoqlar va ishlab chiqarishlar rivojlanishining samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi parametrlarni hisobga olgan holda boshlang'ich ma'lumotlar asosida alohida ko'rsatkichlar qiymatlarini hisoblab chiqish va bosh.

Klaster turidagi eng mashhur tizimlarga Silikon vodiysidagi (AQSh) kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari sohasi, Xelsinkidagi (Finlyandiya) aloqa va telekommunikatsiyalar, Gollivuddagi (AQSh) kino ishlab chiqarish, Moskva mintaqasidagi aerokosmik sanoat sohasi kompaniyalarining kooperatsiyasi misol bo'la oladi. Bugungi kunda jahon biznesi rivojlanishida xalqaro klasterlar, shu jumladan, alohida mintaqalar doirasidan tashqariga chiquvchi klasterlar sonining tobora

ko'payib borayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Masalan, Evropa maqomiga ega ko'plab klasterlar xalqaro darajaga chiqishga intilmoqda. Bu asosan xalqaro va transchegaraviy loyihalarga taalluqli. Frantsuz farmatsevtik klasteri Lui Paster universiteti orqali Kanadaning «Invivo» klasteri bilan hamkorlik qiladi. Bunday hamkorlikdan ko'zlangan maqsad – ushbu klasterlar uchun Shimoliy Amerika va Evropada istiqbolli sotish bozorlarini topishdan iborat. Agar yaqin vaqtga qadar klasterlar eng rivojlangan iqtisodiyotlarda tashkil etilgan bo'lsa, oxirgi yillarda ular

rivojlanayotgan mamlakatlarda ham paydo bo'lmoqda. Vengriya, Polsha, Chexiya, Sloveniyada klasterlashtirish maxsus dasturlar bilan qo'llab-quvvatlanmoqda. Evropa iqtisodiyoti uchun ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirishning ahamiyati shundan iboratki, XX asrning 90-yillarida sanoatni rivojlantirish bo'yicha Birlashgan millatlar tashkiloti (UNIDO) xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha bo'lim (Private Sector Development Branch) yordamida Evropa mamlakatlari hukumatlari va Evropa xususiy biznesining klasterlar hamda kichik korxonalar tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etishda o'zaro hamkorlik qilishiga yordam berish uchun bir qator tavsiyalarni tayyorladi. 2006 yil iyulda EI tomonidan «EI mamlakatlarida klasterlashtirish Manifesti» ma'qullanib, qabul qilindi, 2007 yil dekabrda «Evropa klaster Memorandumi» ma'qullanib, tasdiqlash uchun taqdim etildi va 2008 yil 21 yanvarda Stokgolmda Evropa innovatsiyalar va klasterlar bo'yicha prezidentlar konferentsiyasida tasdiqlandi. 2009 yil 7-10 mayda Pragada bo'lib o'tgan «Sharqiy hamkorlik» mavzusidagi Evropa Ittifoqi sammiti Evropaning o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarida klasterlashtirish jarayonlarining amalga oshirilishiga yordam berdi. Qabul qilingan hujjatlarining asosiy maqsadi – alohida mamlakatlarning ham, Evropa Ittifoqining ham raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir ko'rsatishga qodir klasterlar sonini oshirishdan iborat.

Eng muvaffaqiyatli iqtisodiy tizimlar faoliyatining jahon amaliyotiga ko'ra, birinchi galda, yangi texnologiyalarning yoyilishini rag'batlantiruvchi omillar yuqori darajadagi raqobatbardoshlik va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Zamonaviy klasterlar belgilari va klaster usulida o'zaro hamkorlik tamoyillarining tizimli tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy sub'ektlar – klaster ishtirokchilari o'rtasida o'zaro

aloqalarning shakllanishi, yangi texnologiyalardan foydalanishning soddalashuvi, birgalikdagi iqtisodiy faoliyatning turli shakllarida tavakkalchilikning taqsimlanishi, qo'shma ilmiy tadqiqot ishlarining tashkil etilishi, bilimlar va asosiy fondlardan birgalikda foydalanish kabi o'ziga xos xususiyatlar klaster siyosatining afzalligi va samaradorligini belgilab beradi. Klasterning universalligi va uning integratsiyalovchi xususiyati, innovatsiyalar kiritish qobiliyati hamda O'zbekistonda raqobatbardosh klasterlarni tashkil etish uchun sharoitlarni ta'minlashga yo'naltirilgan klaster siyosati mamlakatning ishlab chiqarish sohasini isloh qilishni amalga oshirishda klaster tamoyillarini qo'llash imkonini beradi. Klasterlar

rivojlanishi xalqaro amaliyotini tahlil qilish ushbu tuzilmalar rivojlanishining umumiy va o'ziga xos omillarini ajratish hamda engil sanoatda korxonalarni tashkil etish modelini shakllantirish va mahalliy klaster tuzilmalarini rivojlantirishning muqobil yo'llarini aniqlash imkonini berdi.

Xulosa. Tadqiqot jarayonida aniqlangan xorijiy engil sanoat klasterlaridagi subkontrakt munosabatlari modeli shundan dalolat berib turibdiki, ishlab chiqaruvchilar bilan etkazib beruvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmi sifatida ierarxik tamoyil asosida uzoq muddatli aloqalarni yo'lga qo'yish, o'zaro qo'llab-quvvatlash va birgalikda o'qish tizimini yaratish, mahsulotning yangi turlarini o'zlashtirish hamda ishlab chiqarish imkonini beruvchi subkontrakt sxemalari qo'llaniladi. Klaster ishlab chiqarishi borasidagi xorijiy mamlakatlar amaliyotining tahlili raqobatbardoshlik paradigmasining almashganligidan dalolat beradi: agar ilgari moddiy resurslar eng muhim omil bo'lgan bo'lsa, hozirda va kelgusida inson resurslari va bilimlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Jahon tajribasini qo'llagan holda

O'zbekiston yengil sanoatida innovatsion klasterni rivojlantirish asosida milliy tizimlarning asosiy vazifasi – innovatsiyalarni yaratish va ular natijalarini tijoratlashtirish orqali raqobatbardosh tuzilmani shakllantirishdan iborat.